



KUSHONLAR DAVLATI TARIXSHUNOSLIGIDA
SHOKIR PIDAYEV ASRLARINING AHAMIYATI

Mahmarahimova Hilola

Meyliyev Alpjamol

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs talabalari

hilola06@gmail.com

alpjamolmeyliyev@gamil.com

Abstract: The article provides information about the role of Shakir Pidayev in the history of the Kushan state. In addition, the ancient city of Termiz during the Kushan dynasty was also described.

Key words: Yuechji-Kushon, Da-yuechji, Dahya, Guy-Shui, Geraya, epithet, Kafir fortress, Buddhism.

Annotatsiya: Maqolada Kushonlar davlati tarixi haqida Shokir Pidayevning tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari Kushonlar sulolasi davridagi qadimgi Termiz shahri haqida ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Yuechji-Kushon, Da-yuechji, Dahya, Guy-Shuy, Geraya, epitet, Kofir qal'a, buddizm.

Аннотация: В статье представлены сведения о роли Шакира Пидаяева в истории Кушанского государства. Кроме того, описан и древний город Термиз времен Кушанской династии.

Ключевые слова: Юэчжи-Кушон, Да-юэчжи, Дахья, Гуй-Шуй, Герайя, эпитет, кафирская крепость, буддизм.



KIRISH. Shokir Pidayev — taniqli o‘zbek arxeologi va tarixchisi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik instituti direktori. Uning ilmiy faoliyati asosan O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi arxeologik tadqiqotlarga bag‘ishlangan. Pidayev qadimgi Termiz shahri va uning atrofidagi yodgorliklarni o‘rganish bo‘yicha muhim ishlarni amalga oshirgan. Uning "Qadimgi Termiz" asari shahar tarixini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Pidayev O‘zbekistonning boy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga katta hissa qo‘shgan. Uning ilmiy maslahatchiligi ostida Parijdagi Luvr muzeyida "O‘zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo‘llari chorrahasida" ko‘rgazmasi tashkil etilgan. Shokir Pidayevning ilmiy ishlari va arxeologik tadqiqotlari O‘zbekistonning madaniy merosini o‘rganish va saqlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuning o‘rganish jarayoniga bir qator tarixchi-qadimshunoslar katta hissa qo‘shganlar (B.A.Litvinskiy, E.A.Davidovich, G.A.Pugachenkova, B.Ya.Staviskiy, L.I.Albaum, E.V.Rtveladze, E.V.Zeymal, B.A.Turg’unov, Sh.R.Pidayev va boshq.). Tarixiy manbalar Yunon-Baqtriya davlati ko‘chmanchi qabilalar tomonidan tor-mor etilganligi haqida ma’lumot beradi. Strabon ma’lumotlariga ko‘ra, Baqtriyaning assiylar, passianlar, toxarlar, saklar qabilalari bosib oladilar. Qadimgi Xitoy manbalarida Baqtriyaning yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma’lumot beriladi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil.avv. 172-161-yillar oralig‘ida deb belgilaydilar) yuechjilar xun qabilalaridan mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng O‘rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko‘chib yuradilar. Kushon davlatining paydo bo‘lishi haqida ko‘proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma’lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining vujudga kelishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo‘lsa-da, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga ko‘plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi.[1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu mavzuni yoritishda Kushon podshohligining faoliyati va shu bilan birga ijtimoiy mavqeyiga alohida e’tibor qaratilib, Anatoliy Sagdullayevning “O‘zbekiston tarixi” 1-kitobi, E.V.Rtveladzening



“O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi”, Shokir Pidayevning “Qadimgi Termiz” va “Sirli Kushonlar saltanati” kitoblarida Kushon podsholigi haqida bir qator ma’lumotlar uchraydi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Mil.avv. I asrning oxiri – milodiy I asrning boshlariga kelib, Guy-Shuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib, Kobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada Kushon davlati o‘z ahamiyatiga ko‘ra antic davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi “Guyshuan hokimi Kiotszyukyu” ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan “Kushon podshosi Kujula Kadfiz” ga aynan mos tushadi. Tangashunoslik ma’lumotlariga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadif I 80 yildan ziyodroq umr ko‘rib, 50-60 yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35-yilda vafot etadi. O‘zining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta bo‘lmagan yuechji mulklari hukmdorlaridan Baqtriyadan tashqari g‘arbiy va janubiy Afg‘oniston vs shimoliy Hindistonni o‘z tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga ko‘tariladi. Manbalarining dalolat beishicha, Kujuladan keyin taxtga uning o‘g‘li Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o‘tiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga o‘tirganidan so‘ng “Tyanchju (Hindiston) ni zabt etdi va u yerga o‘z sarkardalaridan birini boshqarish uchn qoldirdi. Shu davrdan boshlab Yuechji kuchli va boy davlatga aylandi”, deb xabar beradilar. Kadfiz II zabt ettirgan tangalarning o‘ng qirg‘oq Baqtriyadan, Tojikiston va O‘zbekistonning janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning so‘nggi yillardagi tadqiqotlariga ko‘ra , Kadfiz II zarb ettirgan “Shohlar shohi – buyuk xalaskor” degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim saltanati bilan aloqalar o‘rnatganligi haqida ma’lumotlar bor. Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida (II asrning birinchi yarmi) Kushonlar saltanati gullab-yashnashining yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi. Kanishka davrida



Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston) ga ko'chiriladi. Bu davrda mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Kushonlar sulolasi yozma manbalar asosida va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o'rganilgan. Kushonlar davrida chiqarilgan ilk tangalarning bir tomonidan Yunon-Baqtriyaning so'nggi podshosi Germey tasviri, ikkinchi tomonida esa "kushonlar yabg'usi Kujula Kadfiz" degan so'zlar bor. Demak, dastlab Kushon hokimlari o'z nomlarini "podsho", "shoh" tushunchalari bilan bog'lamaganlar. Ammo Kushon davlati hududining kengayishi va siyosiy-harbiy ahamiyatining ortib borishi bilan birga tanga pullarda "shoh", "shohlar shohi" atamasi ko'plab uchraydi.¹

Miloddan oldingi II asrning o'rtalarida Yunon-Baqtriya shohligi shimoldan va shimoli-sharqdan kelgan saklar va yuecgji qabilalar hujumi ostida inqirozga uchraydi. Ko'chmanchilarning bir qismi yanada janubroqqa qarab siljiydi, qolganlari esa Baqtriyada joylashib qoladi. Bu haqda Xitoy yilnomalarida qiziqarli va hikmatli ma'lumotlar uchraydi. Xususan, bu yilnomalarda yozilishicha Yunon-Baqtriya shohligini mag'lubiyatga uchratgandan so'ng ko'chmanchilarning yuechji qabilasi Amudaryoning o'ng qirg'og'iga, ya'ni hozirgi O'zbekiston va tojikistonning janubiy hududlariga joylashib olgan va besh qabila bo'lib shu yerda yashay boshlaganlar. Hozircha shu besh yuechji qabilasining qaysi biri qayerda joylashganligi aniq emas. Ular asta-sekin mahalliy aholi bilan qo'shilib bordi, tilini va ko'pgina urf-odatlarini qabul qildi. Yunon-Baqtriya shohlarining tangalariga o'xshatib tangalar zarb qila boshladilar. Oradan 100 yildan ko'proq vaqt o'tgach, shu besh yuechji qabilasi kushon urug'i atrofida birlashib, Kushonlar salatanatiga asos solganlar. G.A.Pugachenkovaning fikricha, kushonlarning ilk poytaxti hozirgi Sho'rchi rayonidagi Dalvarzintepa xarobalari o'rnida bo'lgan. Bu shahar Xitoy yilnomasida Xodzo nomi bilan ma'lum. Vaqt o'tishi bilan kushonlar butun Baqtriyaning, so'ngra Qobul, Kashmir va shimoli-

¹ A.S.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" 1-kitob. Toshkent-2019.



g'arbiy Hindistonning katta qismini boosib oldi va buyuk Kushon saltanatiga asos soldi. Qisqa vaqt ichida bu saltanat qadimgi dunyodagi to'rta buyuk davlatlar qatoridan joy oldi. Kushonlar taxminan I-IV asrlarda hukmronlik qildi. Bu davr ko'pgina Sharq xalqlari, xususan O'rta Osiyo xalqlari tarixida muhim ahamiyatga ega. Kushonlar saltanati yagona saltanat tarkibida qator xalqlar va elatlarning birlashuvi natijasida bu yerda o'ziga xos bo'lgan madaniyatning rivojlanishiga zamin yaratishi bilan bir qatorda har bir xalqning madaniy an'analari yanada rivojlanishiga, ularning bir-biri bilan yaqinlashuviga ijobiy ta'sir etdi. Xususan, Baqtriyada o'ziga xos Batriya badiiy maktabi shakllandi va rivojlandi. Kushonlar davrida Baqtriyada yuzlab shahar va qishloqlarga asos solindi. Eski shaharlar o'z taraqqiyotlarida yangi bosqichga ko'tarildilar. Mana shunday shaharlardan biri Termiz edi. U Kushonlar hukmronligi davrida yanada yuksaldi. Natijada Shimoliy Baqtriyaning eng katta shaharlaridan biriga va uning poytaxtiga aylandi. Shahar tez sur'atlar bilan kengaya bordi. Hunarmandchilikning turli tarmoqlari, ayniqsa kulolchilik, metallsozlik, tosh-taroshli tez rivojlandi. Kushonlar davrida Termizda savdo-sotiq ham avj olgan. U, asosan, tovar-pul muomalasi orqali olib borilgan. Shaharning "Buyuk ipak yo'li" da joylashuvi uni iqtisodiy va madaniy jihatdan yanada yuksalishiga yanabir zamin bo'lib xizmat qildi.²

Ilk bor "Kushon" so'zining ishlatilishi "Geraya" deb atalmish tetradraxma va obolalarda qayd etilgan. Ulardagi bitiklarda aytilishicha: "Geraya hukmdori Sanaba Kushona". "Geray" so'zi va "Sanab" ni olimlar hukmdorlarining nomi deb hisoblashgan, aslida esa, ular unvon (geray) va epiteto (sanab-dushmani daf qiluvchi narsani ko'rsatish uchun uning nomiga qo'shib aytiladigan so'z), Kushon esa qabila nomi emas, balki hukmdorning nomidir. Aynan Kushon – Kushoniylar sulolasining asoschisi bo'lib, miloddan avvalgi I asrda, Baqtriyaning shimoli-sharqiy qismida hukmdorlik qilgan bo'lsa kerak, negaki tangalarning anchayin ko'pgina qismi aynan o'sha yerdan topilgan. Ilk Kushon shohlarining genegologiyasi Baqtriya yozuvida bayon qilingan. Bu nodir

² Shokir Pidayev "Qadimgi Termiz". Toshkent-2001.



qo'lyozma Shimoliy Afg'onistonning Rabatak qishlog'ining Bolg'on qo'rg'onida joylashgan Kofir qal'a me'moriy yodgorligi qazilganda topilgan. bu yozuv Kushon davlati tarixini o'rganish bo'yicha, eng muhim manba bo'lib hisoblanadi. Kushon davlati hukmdorlari turli unvonlarga ega bo'lishgan: Kanishkagacha bo'lgan yunoncha – basilevs (shoh)|, basilevsbasilleon (shohlar shohi), shaonao shao (shohlar shohi), shuningdek hindcha unvonlar ham urfda bo'lgan – maharaja (shoh) maharaja rajatiraja (shohlar shohi), devaputra (xudoning o'g'li). Kushon saltanatida quldorlik tuzumi hukm surgan bo'lib, binobarin, unda muhim rol qishloq jamoalariga tegishli bo'lgan. Diniy siyosatda Kushon podshohlari diniy erkinlikni e'tirof etish tarafdorlari bo'lishgan: sulolaviy din bilan bir qatorda, buddaviylik va zardushtiylik va boshqa dinlar – hindu, eron, Yunon va Misr dinlari davlat doirasida keng tarqalgan edi. Eramizning III asri birinchi yarmining oxirlari yoki o'rtalariga kelib Kushonlar davlatining hukmronligi yakuniga yetdi. Baqtriya-Tohariston alohida hukmronligi yakuniga yetdi.³

Xolchayon Denov rayonidagi Kalilin nomli kolxoz territoriyasida, Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Qazishmalar davomida bu yerda shahar hokimining saroyi borligi aniqlandi. Mazkur saroy me'morchilik nuqtai nazaridan g'oyat diqqatga sazovordir. Saroy unchalik katta bo'lmay, 9 xonadan iborat. U sharqda, kunchiqar tomonga qaratib qurilgan. Saroyning old tomonida uzun ayvon ham bo'lib, u oltita ustunga tayanib turgan. Ayvonning to'rta eshigi bo'lib, ulardan uchasi to'rtburchakli asosiy qabulxona bilan bog'langan. Kushonlar davridagi Shimoliy Baqtriyaning eng katta ibodatxonasi Qadimgi Termiz shahri yaqinidagi bo'lgan. Bu ibodatxonaga o'sha zamondagi ko'pchilik shahar va qishloqlardan budparastlar kelib sajda qilganlar. Garchi har bir shaharda budparastlarning alohida ibodatxonalarni bo'lsa-da, markaziy ibodatxonada toat-ibodat mahalliy ibodatxonalardagidan boshqacha g'ayritabiiy ruhda o'tgan. Yozma manbalardan ma'lumki, Termizdan Draxmamitra ismli mashhur kohin yetishib chiqqan. Ikkinchi bir targ'ibotchi

³ E.V.Rtveladze "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi". "San'at Jurnal.: Toshkent-2009.



Gxoshaka hisoblanadi. U Peshovarda buyuk Kushon shohi Kanishka uyushtirgan budparastlarning yig'ilishida ishtirok etgan. Gxoshaka bilan Baqtriyada buddizmning bir mazhabi – vaybxashiklarning tarqalishi boshlangan. U bundan tashqari buddizmga bag'ishlangan katta bir asarning muallifi ham bo'lgan. Bu asar “Abxidxormapitaka” deb atalgan.⁴

XULOSA. Kushonlar davlati Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishida tarixiy shaxslarning roli katta ahamiyat kasb etadi. Shokir Pidayevning ilmiy yondashuvlari va olib borgan tadqiqotlari Kushonlar davlati tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. U nafaqat davlatning siyosiy va ijtimoiy hayotini o'rganishga e'tibor qaratgan, balki bu davlatning madaniyati, xalqaro aloqalari va iqtisodiy taraqqiyotiga oid qimmatli ma'lumotlarni ilmiy doiraga olib kirgan. Shu asosda aytish mumkinki, Shokir Pidayevning ilmiy ishlari nafaqat Kushonlar davlatining tarixini yoritishda, balki butun Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlarini chuqurroq anglashda ham katta hissa qo'shadi. Uning merosi o'rganishni davom ettirish va yosh avlodlarga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.S.Sagdullayev “O'zbekiston tarixi” 1-kitob. Toshkent-2019.
2. Shokir Pidayev “Qadimgi Termiz”. Toshkent-2001.
3. E.V.Rtveladze “O'zbekistonning tarixiy o'tmishi”. “San'at Jurnali.” Toshkent-2009.
4. Shokir Pidayev “Sirli Kushonlar saltanati”. Toshkent-1990.
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.

⁴ Shokir Pidayev “Sirli Kushonlar saltanati”. Toshkent-1990.



7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – С. 743-749.